

## JINOYAT SODIR ETISHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK SABABLAR

*Elov Ziyodullo Sattorovich*

*Osiyo xalqaro universiteti pedagoika va psixologiya kafedrasi dotsenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qotillik jinoyatining psixologik sabablariga e'tibor qaratilgan. Inson ruhiyatidagi buzilishlar, stress, travma va g'azab kabi omillar qotillik sodir etilishiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilindi. Shuningdek, ijtimoiy muhit, oilaviy mojaro va shaxsiy hissiyotlarning jinoyatchi xatti-xarakatiga ta'siri o'rganiladi. Maqola, qotillikning oldini olish uchun psixologik yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ahamiyatni yoritib beradi. Psixologik tahlil va real hayot misollari asosida jinoyatchilikni kamaytirish strategiyalari taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** psixopat, sotsiopat, psixologik, biologik, jinoyat, holat, buzilish, shaxs, omillar, g'azab, nafrat, qasd, profayling

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ СОВЕРШЕНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ

**Аннотация:** Эта статья посвящена психологическим причинам убийств. Проанализировано, как на совершение убийства влияют такие факторы, как психологические нарушения, стресс, травма и гнев. Также изучается влияние социального окружения, семейного конфликта и личных эмоций на преступное поведение. В статье подчеркивается важность психологической помощи и социальной поддержки для предотвращения убийств. Стратегии снижения преступности предлагаются на основе психологического анализа и примеров из реальной жизни.

**Ключевые слова:** психопат, социопат, психологическое, биологическое, преступление, состояние, расстройство, личность, факторы, гнев, ненависть, намерение, профилирование.

## SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CAUSES OF COMMITMENT OF CRIMES

**Annotation:** This article focuses on the psychological causes of murder. It was analyzed how factors such as psychological disturbances, stress, trauma and anger affect the commission of murder. Also, the influence of social environment, family conflict and personal emotions on criminal behavior is studied. The article highlights the importance of psychological help and social support to prevent homicide. Crime reduction strategies are proposed based on psychological analysis and real-life examples.

**Keywords:** psychopath, sociopath, psychological, biological, crime, condition, disorder, personality, factors, anger, hatred, intent, profiling

Odil sudlovni o'rnatishda psixologik bilimlardan foydalanish qadim zamonlardan boshlangan. Antik va o'rta asrlarda (mil.av. III-asr va V-XVII-asr) jinoiy javobgarlikka tortish uchun empirik tajribalardan foydalanilgan. Rossiyada jinoyatchilikda, jinoyatchining psixologiyasiga e'tibor berish kerakligi to'g'risida I.T.Posashkov faol fikr yuritadi. Uning nuqtai nazari bo'yicha jinoyatchilarning boshqa odamlarga nisbatan salbiy ta'sirini yo'qotish maqsadida ularning xulq-atvorini tavsiflash kerak bo'ladi. V.N.Tatishev fikriga ko'ra "qonunlarni

yoshlikdan bilish lozim, ularni bilmaslik buzilishga olib keladi”, degan nazariya ilgari suriladi. Knyaz M.M.Sherbatovning fikriga ko‘ra qonun chiqarishda xalqning psixologiyasi, insonlarning yuragini bilish lozimdir. U birinchilardan bo‘lib jinoyatchini muddatdan avval chiqarib yuborish masalasini ko‘targan.

XIX asrda I. Gofbauerning “Sud hayotida psixologiyani qo‘llash” va I.Fridrixning “Sud psixologiyasiga oid muntazam qo‘llanma” deb nomlangan ilmiy izlanishlarida psixologik nuqtai nazaridan shaxs, uni ayblash tushunchasi, sud jarayoni, psixologiyasi kabi savollar keng yoritib berilgan.

XX asrda I.S.Barshevning “Jinoiy huquqshunoslik fani”, N.Ya.Yanovich-Yanevskiyning “Jinoiy adliya to‘g‘risida fikrlar” kabi ishlarida psixologiya bilimlariga katta e‘tibor qaratilgan. I.S.Barshevning fikri bo‘yicha “psixologiyani bilmaslik bu tirik insonlarni emas, balki o‘lganlarni sud qilish demakdir”.

Jinoiy qasd hosil bo‘lish mexanizmini aniqlashda jinoyatchilikning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bir qatorda jinoyatchining shaxsini chuqur o‘rganish ham zarur. Bunga ko‘p jihatdan ushbu individ kiradigan ijtimoiy guruhlar bilan tanishish yordam beradi. Ushbu shaxsning yaqinlari o‘rtasida hukmronlik qilayotgan o‘zaro munosabatlar tarkibini o‘rganish, bu shaxs a‘zo bo‘lgan ijtimoiy guruhlar psixologiyasini bilish, shaxs bilan jamiyat o‘rtasidagi aloqani, individual va ijtimoiy ong aloqasini aniqlash zarur. Har qanday insonning ijtimoiy qiyofasi ko‘p jihatdan uning mikro olami mazmuni bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu mikro olamning psixologik tuzilishi individual xulq uchun kuchli katalizator bo‘lib xizmat qiladi. Juda ko‘p hollarda xulqning xususiyati atrof-muhitdagi axloqiy me‘yorlarning mazmuniga bog‘liq bo‘ladi.

#### **Psixologik buzilishlar:**

Psixopatiya va sotsiopatiya: psixopatlar va sotsiopatlar odatda empatiyani his qilmaydilar va boshqalar hissiyotlariga befarq bo‘ladilar. Bu ularda zo‘ravonlikka moyillikni kuchaytiradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, qotillik sodir etgan jinoyatchilarning taxminan 25-30% psixopatik xususiyatlarga ega.

Bipolyar buzilish va depressiya: qotillik sodir etuvchi shaxslarning ayimlari ruhiy tushkunlik yoki og‘ir bipolyar buzilish holatida bo‘ladi. Ular g‘azabni nazorat qila olmaslik natijasida jinoyatga qo‘l urish mumkin.

#### **Ijtimoiy omillar**

Bola davridagi travmalar: bolalikda zo‘ravonlikka uchragan yoki oilaviy muammolarga duch kelgan shaxslar kattalikda jinoyat sodir etishga moyil bo‘ladi. Masalan, qotillik sodir etganlarning 60% dan ko‘prog‘i bolalikda jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlikka duch kelgani aniqlangan.

Qo‘zg‘atuvchi muhit: ijtimoiy tengsizlik, qashshoqlik, ta‘lim yetishmasligi va zo‘ravonlikka to‘la muhit shaxslarni qotilikka yetaklashi mumkin

#### **Shaxsiy omillar**

G‘azab va qasos: qotillikning ko‘plab hollari g‘azab yoki qasos his-tuyg‘ulari tufayli sodir etiladi. Bu holatda jinoyatchi asosan hissiy qaror qabul qiladi.

Ego va boshqarish ishtiyoqi: ayrim jinoyatchilar o‘zini boshqalardan ustun qo‘yish yoki ularni boshqarish ehtiyojini his qiladi. Ushbu hissiyot ko‘pincha zo‘ravonlik va qotilikka olib keladi.

#### **Biologik sabablar**

Miya faoliyatidagi buzilishlar: miya faoliyatidagi anomaliyalar, masalan, frontal korteksning shikastlanishi yoki limbik tizimdagi muammolar, shaxsni impulsiv va zo‘ravon qilishi mumkin. Bu holatlar ko‘pincha qotillik sodir etganlarda uchraydi.

Genetik omillar: ayrim tadqiqotlar ba'zi shaxslarning DNKsi ularning tajovuzkorlikka moyilligiga ta'sir qilishii ko'rsatadi. MAOA genining mutatsiyaga uchragan shakli bilan bog'liq jinoyatlar o'rganilgan.

### **Statistik ma'lumotlar**

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha har yili taxminan 400 ming odam qotillik qurboniga aylanadi. Qotillik sodir etgan jinoyatchilarning 40-50% psixologik yoki ruhiy muammolarga ega bo'lganligi qayd etilgan. AQSHda sodir etilgan qotilliklarning 70% ini zo'rvonlikni rag'batlantiruvchi sharoitlar (masalan, oilaviy nizolar yoki moddiy qiyinchiliklar) bilan bog'liq.

### **Oldini olish choralarining ahamiyati**

- Travma bilan ishlash dasturlari, ayniqsa, bolalar uchun, qotilikka moyilikni kamaytirish mumkin.
- Psixologik yordam xizmatlarini kengaytirish orqali jinoyatchilikni kamaytirish mumkin.
- Stressni boshqarish va g'azabni nazorat qilish treninglari zo'rvonlikning oldini olishda muhimdir.

### **Psixologik tahlil usullari**

#### a) Profayling (jinoyatchi portretini yaratish)

Bu usul jinoyatchining shaxsiy xususiyatlari, odatlari va harakatlarini aniqlashga yordam beradi.

- Qo'llanilishi: jinoyat joyidagi dalillar, qurbonning shaxsiyati va jinoyat usulidan kelib chiqib, jinoyatchining ruhiy holati aniqlanadi. Masalan, qotillik zo'rvonlik yoki manipulyatsiya asosida sodir etilganmi degan savolga javob topiladi.

- Misol: Ted Bundi kabi seriyali qotillar profiling orqali qo'lga olingan. Ularning aqilli, manipulyativ va o'ziga ishongan xarakterlari dalillar orqali tasdiqlangan.

#### b) Intervyu va so'rovnomalar

Jinoyatchi bilan suhbatlar orqali uning ruhiy holati va qotillikni sodir etishga undagan sabablar aniqlanadi.

- Qo'llanilish: jinoyatchilarning g'azab, qasos yoki travmatik tajribalari bilan bog'liq ruhiy holatlari o'rganiladi.

- Misol: AQSHda qotillik sodir etgan shaxslarning aksariyati intervyu davomida bolalik travmalari yoki oilaviy zo'rvonlik ta'sirida o'sganligini aytgan.

#### c) Psixologik testlar

Maxsus testlar orqali jinoyatchining ruhiy buzilishlari (masalan, psixopatiya, bipolyar buzilish) va shaxsiy xususiyatlari aniqlanadi.

- Qo'llanilishi: MMPI (Minnesota Multiphasic Personality Inventory) yoki PCL-R (Psychopathy Checklist Revised) kabi testlar jinoyatchilarning ruhiy halotini aniqlashda qo'llaniladi.

- Misol: 1990-yillardagi Jeffrey Dahmer ishi davomida, testlar uning psixopatiya va boshqa ruhiy buzilishlardan aziyat chekkanini ko'rsatgan.

### **Hayotiy misollar orqali tahlil**

#### a) Seriyali qotil Ted Bundi

- Profiling: Ted Bundi o'z qurbonlarini diqqat bilan tanlab, ularni o'ziga jalb qilgan. Dalillar va uning yuqori darajadagi manipulyatsiya qobiliyatiga ega ekanini ko'rsatdi.

- Psixologik sabablar: bolaligida otasi tomonidan zo'rvonlikka uchragan va o'zini jamiyatda kamsitgan deb his qilgan. Bu g'azabini qotillik orqali ifodalashiga olib kelgan.

#### b) Nikson ismli bolalik qotili (real voqea)

- Voqea: 12 yoshli nikson qo'shnisining bolasini zo'ravonlik bilan o'ldirgan.
- Tahlil: suhbat va tahlillar davomida Niksonning bolaligida o'z ota-onasi tomonidan jismoniy va ruhiy zo'ravonlikka uchragani ma'lum bo'ladi. Bu travma u o'z tengqurlari ustidan kuch ishlatish orqali o'zini himoya qilishga urinishi bilan bog'liq.

c) Mark Chapman (Jon Lennon qotili)

- Voqea: 1980-yil mashhur qo'shiqchi Jon Lennon o'ldirildi.
- Psixologik sabablar: Chapmanning ichki konfliktlari, ongidagi o'ziga past baho berish hissi va yulduzlarga qarshi ichki nafrati uni qotillikka olib keldi. Psixologik tahlillar uning o'ziga xos narsistik xususiyatlarga ega bo'lganini aniqladi.

### Ilmiy dalillar

- Frontal korteks va limbik tizimi: tadqiqotlarga ko'ra, jinoyatchilarning ko'pchiligida miya faoliyatida buzilishlar aniqlangan. Ushbu sohalar impulslarni nazorat qilish va hissiy javob uchun mas'uldir.

- Statistika: jinoyatchilarning 60% dan ko'prog'I bolaligida jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlikka duch kelgan.

Jinoyatchilikni oldini olish choralari

- Psixologik yordam: jinoyatchilarga o'z hissiyotlarini boshqarish uchun dasturlar tashkil etishi.

- Travma markazlari: bolalik travmasini boshdan kechirgan shaxslar uchun qo'llab-quvvatlov dasturlari.

- Ta'lim: ijtimoiy muammolarni hal qilish va konfliktni tinch yo'l bilan hal etishni o'rganish

Maqolamni xulosalash qismida ham ilmiy ham diniy tomondan xulosalab o'tib ketmoqchiman. Qotillik kabi og'ir jinoyatlarning sabablarini o'rganishda diniy va ilmiy yondashuvlar bir-birini to'ldiradi. Diniy nuqtai nazard jinoyatning ma'naviy- axloqiy jihatlarini ochib bersa, ilmiy tahlillar uning ruhiy va biologik asoslarini yoritadi. Ushbu maqolada qotillikning sabablari va ularni yengish yollari diniy va ilmiy nazardan baholanib o'tildi.

### Tavsiyalar

- Travma markazlari va psixologik yordam xizmatlarini rivojlantirish.
- Stressni boshqarish va g'azabni nazorat qilish bo'yicha maxsus treninglar o'tkazish.
- Ta'lim tizimida ijtimoiy ko'nikmalar va tinchlikni targ'ib qilish dasturlarini joriy etish.

1. Islom nuqtai nazaridan: qotillikning oldini olish uchun odamlar g'azab va nafratdan tiyilishi, sabr va kechirimli bo'lish kabi fazilatlarini shuningdek, din insonlarni o'zaro tinchlik va adolatni saqlashga chaqiradi.

Islom va ilm birgalikda qotillikning oldini olishda kuchli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Inson hayptiga bo'lgan hurmatni shakllantirish orqali jamiyatda barqarorlikni ta'minlash mumkin.

### Xulosa

Dinda qotillikning qoralanishi:

1. Hayotning muqaddasligi: Alloh Taolo Qur'onda shunday deydi: "kimda bir jonni nohaq o'ldirsa, u go'yo barcha insonlarni o'ldirgan bo'ladi. Kim bir jonni tiriltirsa, u go'yo barcha insonlarni tiriltirgan bo'ladi" (Moida surasi, 32-oyat). Bu oyat qotillikning nafaqat qurbon balki jamiyatga yetkazadigan zararini ko'rsatadi.

2. Nohaq qon to'kishning jazosi: Islomda nohaq qotillik qilgan shaxs uchun og'ir jazo belgilangan: "kim atayin bir mo'minni o'ldirsa, uning jazosi jahannamdir va doimiy ravishda

azoblanadi” (“*Niso surasi*” 93-oyat). Bu oyat inson hayotini qadrlash va qotillikdn tiyilishga chaqiradi.

3. Ichki g’azab va sabrning ahamiyati: Islomda g’azabni nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v) dedilar: “Kuchli odam – bu kurashda yenguvchi emas, balki g’azabini jilovlay oluvchi kishidir” bu g’azab tufayli qotillik sodir etilishining oldini olish uchun psixologik choralar zarurligini ta’kidlaydi.

Har bir jinoyatining asosida bir qator sabab va shart-sharoitlar, individualbiologik, ruhiy va ijtimoiy-psixologik omillarning ulanishi yotadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Elov Z.S. Sud psixologik ekspertizasi tarixi rivojlanish jarayoni bosqichlari. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – TOM 4 – SON / 2024 - YIL / 15 – APREL. 306-313

2. M.A.Gafarova., Z.S.Elov. Inklyuziv ta’limda pedagog-psixologning kasbiy psixologik xususiyatlari. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – TOM 4 – SON / 2024 - YIL / 15 – APREL. 477-480

3. Z.Elov. Социально-психологические причины формирования девиантного поведения у подростков. Pedagogik mahorat. Ilmiy jurnal. 2024

4. Z.S.Elov. Zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi. Pedagogik akmeologiya. Ilmiy jurnal 5/3. 2024

5. Элов Зиёдулло, Я. САМИНЖОНОВ. Ўсмирлар орасида ўз жонига қасд қилиш ҳолати психологик муаммо сифатида. 2024. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (2), 69-78

6. O.Mamatov., Z.Elov. Talabalarni bilish faoliyatiga motivlashtirishning psixologik va pedagogik asoslari. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (1), 37-42. 2024

7. Z.Elov. Identifikatsiya jarayoni muammosining psixologiyada o‘rganilishi. ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR INTEGRATSIYASI. Ilmiy konferensiya to‘plami. 2023

8. Z.Elov. O‘z joniga qads qilish masalasi jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (12), 50-54

9. Z.Elov. Shaxsda fobiya holati va uning diagnostikasi. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (11), 66-74

10. Z.Elov. Suitsidial xulq-atvor haqida tahlillar va nazariyalar. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (10), 11-22

11. Z.S.Elov. Suitsidial xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o‘rganilishi: tahlillar va nazariyalar. 2023. Science and Education 4 (10), 326-342